

**HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING AXLOQIY TARBIYA XUSUSIDAGI
QARASHLARIDA, YOSHLARNING INSONPARVARLIK RUHIDA
TARBIYALANISHI**

Nematova Gulsanam Nodir qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'rifatparvar o'zbek shoiri Hamza Hakimzoda Niyoziyning yoshlarning insonparvarlik ruhida, tarbiyalanishi, ta'limning o'ziga xos tomonlari va asosiy g'oyalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Hamza Hakimzoda Niyoziy, ma'rifatparvar, bola shoiri, she'riyat hikoyat, yangi maktab, maorif, axloqiy tarbita.

Hozirgi zamon o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri ma'rifatparvar bolalar shoiri Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yilda Qo'qon shahrida dunyoga kelgan. 7 yoshidan maktabda xat savod o'rgana boshlaydi. Maktabni bitirgach, madrasaga va I.V.Orlovning kechki rus-tuzem maktabiga o'qishga kirdi. Hamza madrasada o'qigan chog'laridayoq Firdavsiy, Hayyom, Sa'diy, Hoqoniy, Jomiy, Bedil va boshqalarning ulkan she'riyati bilan tanishdi, shuningdek, Sharq olimlarining asarlarini o'qidi. U 1911-yilda Qo'qon shahrida kambag'al, beva-bechoralarning bolalari uchun maktab ochdi, "Yordam jamiyati" tuzdi, kutubxona tashkil etdi. Yangi maktab, yangicha darslar uchun o'zi darslik va qo'llanmalar yaratdi.

Shoir yosh avlodlarining bir kuni olimlar qatoridan o'rin olishiga, hatto suv osti va osmonda kezdigan bilimdon bo'lishiga ishonadi. Kelajakka ishonch ruhi adibni bolalar uchun ko'plab darsliklar, ijtimoiy-siyosiy mavzuda, dunyoviy ilm, kasb-hunarni o'rganishga undovchi she'rlar bitishiga turtki bo'ladi. Shoirning «Qalam» she'ri qasida tarzida yozilgan. Lirik qahramon maktabga kelib, qalamga oshno bo'lgani va shu tufayli aqli raso, ilm-u adab egasi bo'lib, barcha orzu umidlari ro'yobga chiqqanini ta'rif-tavsif etadi:

O'qudim, chiqdi savodim ham xatim yaxshi bo'lub,

G'ayratimga yarasha ishlar mango qildi qalam.

Harna kim yozmish qalam so'zidin also chiqmadim,

Ul mani ham aytganim axir bajo qildi, qalam.

Shoir bolalarni maktabga qiziqtirish, o'quv qurollariga havas uyg'otish borasida ilmning xosiyatini teran idrok etadi. Yosh qahramon tilidan «Bor edi ko'nglumda bo'lmoq podsholik orzu, O'tmadi fursat, bu hojatim ravo qildi qalam. Bir gadoni o'g'li erdim podsho qildi qalam»,— deya ma'rifatni ulug'laydi. Natijada shoir she'ri va talqinidan insonning jamiyatdagi mavqeyi, qanday inson bo'lib yetishuvi ilm sharofatidan ekanligi anglashiladi. Hamzaning bolalar uchun yozgan yana bir she'ri «Bir kishining bor edi to'rt bolasi» deb nomlanadi. Aslida bu mavzu o'tgan asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyotida alohida yo'nalish sifatida ko'zga tashlanadi. O'sha davr o'qish kitoblaridagi axloq-odob mavzusi insoniylikning turli yaxshi va yomon jihatlarni qamrab olgan. Saxiylik va baxillik, to'g'ri so'zlik va yolg'onchilik, mehnatsevarlik va dangasalik, sabr va sabrsizlik, qanoat va ta'magirlik, sadoqat va bevafoqlik, adolat va jabr-zulm singari insoniylikning qarama-qarshi qutblarida turgan o'nlab fazilat va illatlarning yaxshi-yu yomon jihatlari xususida fikr yuritilib, yaxshisidan o'rnatilgan o'rin olishga, yomonidan hazar qilishga undovchi she'r, hikoyalarga keng o'rin ajratilgan.

Hamza hamisha maorif tarqatishni, xalqning farzandlariga bilim berishni o'zining asosiy yumushi deb hisoblagan. Chunki shoir vatanparvar ziyoli, elsevar jadid sifatida ma'rifat vatan erkiga olib boradigan yolg'izgina yo'l ekanligini yaxshi tasavvur etardi. Millatining farovon yashashini orzu qilgan, vatanda jaholat hukmronlik qilayotganidan qiynalgan shoir barcha baxtsizliklarning sababi ma'rifatsizlikda, odamlarning o'qimaganligida, o'qishga sharoitning yo'qligida deb hisoblaydi. U birinchi sinf o'quvchilari uchun 1914-yilda yaratgan «Engil adabiyot» darsligida:

Maktab — millatni guli,

Millat aning bulbuli,

Maktabsiz qolgan millat

Boshqa chamanni quli... deb yozgan edi. Millatni ma'rifatli ko'rish Hamzaning deyarli barcha asarlaridagi asosiy fikr hisoblanadi. Ilmsizlik tufayli qoloqlik botqog'iga botgan Turkistonga, ona Vataniga shoir dard bilan murojat qiladi.

Hamza har qanday taraqqiyotning asosi millat vakillariga ilm o'rgatishda ekanligini ko'zda tutadi. Ilmning ahamiyatini, inson hayotida ma'rifat tutgan yuksak maqomni tasvirlashga yo'naltirilgan adabiyot ma'rifatchilik adabiyoti hisoblanadi. O'zbek adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon ma'rifatni tarannum etishga alohida e'tibor berilgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy singari ko'p asrlar oldin yashab o'tgan adiblar ham ma'rifatni ulug'lab asarlar yozganlar.

Hamzaning fikricha, bolalarni barkamol inson qilib etishtirish uchun o'qituvchining o'zi chuqur bilimga ega. qobihyatli va yuksak axloqiy fazilatli bo'lishi kerak. Hamza ta'lim-tarbiya haqida bildirgan fikrlarida bolalarning sog'lom Bo'lishiga ham e'tibor beradi. U, ayniqsa, ta'lim-tarbiyada ota-onalarning muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Bolaning go'zal axloqli bolib kamol topishi uchun oila muhitidatarbiyaningtog'riyo'lga qo'yilishi zarurligini aytadi Shoirning fikricha, bola odobningboshini ota-onadan oladi; o'vganadi, bune ' jiddiy c'tibor berilmasa tarbiya juda qiyin kechadi va yomon oqibatlar olib borishi aniq ekanligini bayon etadi. Hamzaning axloqiy tarbiya xususidagi qarashlarida yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash alohida o'rin egallaydi. Uning fikricha yoshlardagi insonparvarlik kishilarning qadr-qimmatini anglash, unj hurmat qilish, insoniy huquqlarini himoya etish, ularga hurmat bilan muomala qilishdan iborat bo'lishi kerak. Yoshlarni insonparvalik ruhida tarbiyalash ularda o'ziga yaqin bolgan kishilarga, avval ota-onasiga samimiy muhabbat tuyg'usini rivojlantirishdan boshlanishi kerak Shu tufayli ham, shoir o'z darsliklariga kiritgan she'r va hikoyalarda bolalarni o'zot-onalariga mehribon bo'lishga, ulami qadrlashga chaqiradi.

Demak, maktab yoshlarni ilmli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o'rgatishi kerak, Hamza Hakimzoda hunar o'rgatishni keng ma'noda tushunadi. Hamza Hakimzoda o'z pedagogik qarashlarida har bir inson jamiyat, tabiat va hayvonot dunyosidan xabardor bo'lishi kerakligi haqida so'zlar ekan. Buning uchun ilm-fanlarni egallash zarurligini ta'kidlaydi.

Hamza Hakimzoda aqliy tarbiya haqida so'z yuritir ekan, aqliy tarbiya orqali tabiat va jamiyat qonunlarini, tabiat hodisalarini, ular o'rtasidagi bog'liqlikni bilish kerakligini aytadi. Shoir ana shunday ma'lumotga ega bo'lgan va jamiyat, xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan yoshlarni yetishtirishga da'vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamasoli Jumaboyev. "Bolalar adabiyoti". "O'qituvchi" Nashriyot- Matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2004
2. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. (2020) Adabiyot 5-sinfi uchun darslik. Toshkent. "Sharq". 190-200
3. Hamza Hakimzoda Niyoziy. (1988) Tanlangan asarlar. She'rlar. (2-tom). T: Fan
4. Muminova, U. Important problems of Uzbek anonymity in the works of Kasghari. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIST RESEARCH JOURNAL ISSN, 2776-0979.
5. Qarshiyevna U. M. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari // Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 336-340.
6. Ra'no C., Karshiyevna M. U. Innovative Approach as a Condition for Improving the Educational Process in a Modern School // Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 117-120.
7. Muminova U. K. PHYTONYMS IN THE WORK "MAHBUB UL-QULUB" // "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE". – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 46-50.
8. Qarshiyevna M. U. Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language International Interdisciplinary Research Journal Volume 2 Issue 1, Year 2023 ISSN: 2835-3013.

